



O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONDA PEDAGOGNING 5E MODEL DAN FOYDALANISHGA TAYYORGARLIGI

L.B.Irisova

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi
2-kurs magistranti
E-mail: lobarislomova05@gmail.com
Tel: 94 081 38 39

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18712096>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogning 5E modeldan foydalanishga tayyorgarligi haqida ma'lumotlar berilgan. O'qituvchining modeldan foydalanishdagi psixologik, nazariy, amaliy va metodik jihatdan tayyorgarligi haqida ma'lumot berilgan. Modelning har bir bosqichida aynan nimalarga e'tibor berilishi haqida aytib o'tilgan. Mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi ochib berilgan.

Аннотация. В данной статье представлена информация о готовности педагога к использованию модели 5Е в учебно-воспитательном процессе. Дана информация о психологической, теоретической, практической и методической подготовке учителя к использованию модели. На каждом этапе модели было указано, на что именно следует обратить внимание. Раскрыта актуальность темы на сегодняшний день.

Abstract. This article provides information on the teacher's readiness to use the 5E model in the educational process. Information is provided on the teacher's psychological, theoretical, practical, and methodological preparation for using the model. At each stage of the model, it is indicated what exactly needs attention. The current relevance of the topic is revealed.

Kalit so'zlar: 5E model, pedagog, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, psixologik, konstruktivistik.

Ключевые слова: модель 5Е, педагог, вовлечение, исследование, объяснение, разработка, оценка, психологический, конструктивный.

Keywords: 5E model, pedagogical, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, psychological, constructivist.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarmoqda. Modern maktablar bilim berishdan tashqari o'quvchining mustaqil fikrlashini, har qanday sohaga kreativ yondashishini va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi bir muhit bo'lishi zarur.



Shuning uchun, ta'lim sohasida pedagoglarning innovatsion texnologiyalarni qo'llashga tayyorlash dolzarb masalalardan biridir.

Respublikamizda ta'lim sohasini zamonaviylashtirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: "Yangi O'zbekiston barpo etishda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash ustuvor vazifamizdir". Bundan ko'rinib turibdiki, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifadir. Aynan yuqoridagi masala O'zbekiston – 2030 strategiyasida ham ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Ana shunday innovatsion yondashuvlardan biri – 5E modeli bo'lib, u konstruktivistik ta'lim nazariyasiga asoslangan holda bolalarni faol subyektga aylantirishga xizmat qiladi. Mazkur model o'quvchilarning bilish jarayonlarini bosqichma- bosqich faollashtiradi, ularning motivatsiyasini yuzaga keltiradi hamda refleksiyaning hosil qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida dars jarayonini samarali tashkil qilish o'qituvchidan zamonaviy yondashuvlarni puxta egallashni talab etadi. Xususan, 5E modeli asosida darslarni tashkil qilish pedagogning metodik, psixologik va kasbiy kompetensiyalarini namoyon qilishini talab etadi.

Pedagogning mazkur modeldan foydalanishga tayyorgarligi uning nazariy jihatdan bilimga ega ekanligiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarning bilimni tayyor holda emas balki kashf qilish orqali olishlari uchun konstruktivistik yondashuv mohiyatini chuqur bilishi kerak. Bundan tashqari qo'llaniladigan metodlarni bolalarning yoshiga hamda psixologiyasiga moslashni o'rganishlari lozim. Nazariy tayyorgarlik modelning har bir bosqichidagi didaktik maqsadini anglash, bolalarning yoshini inobatga olish, dars jarayonida motivatsion muhit yaratish usullarini bilish, baholashning zamonaviy usullarini qo'llash kabilarni o'z ichiga oladi.

Pedagog modelning har bir bosqichini dars jarayonida samarali qo'llay olishi uning metodik tayyorgarligining bir ko'rinishi hisoblanadi. Jumladan, Engage bosqichida bolalarning mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshirish orqali motivatsion muhit yaratishi, Explore bosqichida bolalarni mustaqil fikrlashga undaydigan hamda jamoa bo'lib ishlanadigan topshiriqlar tashkil qilishi, Explain bosqichida pedagogning tushuntirish jarayonida mavjud qobiliyatlarni namoyon etishi, Elaborate bosqichida olingan bilimni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini hosil qilishga undaydigan topshiriqlar berishi, Evaluate bosqichida yangicha baholash usullarini tashkil qilishi kabilardir.



O'qituvchi metadist sifatida interfaol metodlardan foydalana olishi, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydigan savollarni bera olish texnologiyasini egallagan bo'lishi, Kompetensiyaviy yondashuv jarayoniga ham befarq bo'lmasligi darkor.

Pedagog psixologiyadan ham xabardor shaxs sifatida bolalar psixikasini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Bolalar energiyaga boy doim harakatda darsda ham faol bo'ladi. Shu sababdan o'qituvchi o'quvchilarning yoshini hamda individual xususiyatlarini inobatga olishi, muomala madaniyatiga ega bo'lishi, bolalarni og'zaki va turli predmetlar orqali rag'batlantirib turishi lozim.

5E modelini qo'llashda o'qituvchining eng muhim xususiyatlaridan biri uning kasbiy tayyorgarligidir. Bunda pedagog model asosida kreativ metodlarga boy dars ishlanma tuza olishi, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish malakasi, o'zini-o'zi baholashni bilishi, dars yakunida baholash usullarini aniq bilishi talab etiladi.

O'qituvchiga nazariy bilimning o'zi yetarli bo'lmaydi. U amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishi kerak:

- Dars rejasini tuzish – har bir bosqichga kreativ topshiriqlar va faoliyatlarni yaratish kerak. “5E modeli – fikrning evolyutsiyasi. Model nafaqat dars tuzish vositasi, balki o'quvchining fikrlash jarayonini tabiiy ravishda rivojlantiruvchi mexanizmdir.”¹

- Material va resurslar tayyorlash – ko'rgazmali qurollar, eksperimentlar, interaktiv vositalar. “Having adequate resources, time, and training have been important in preparing teachers to competently integrate the 5E model into their classrooms successfully.”²

TARJIMASI: Muqobil resurslar, vaqt hamda malaka – pedagoglarning 5E modelini sinflarida muvaffaqiyatli tatbiq etishga tayyor bo'lishi uchun muhimdir.

- Guruh bo'lib ishlanadigan topshiriqlarni tashkil qilish – o'quvchilarning guruh, jamoa bo'lib ishlashlarini ta'minlaydi hamda barcha boalar faolligini qamrab oladi. Guruh bo'lib ishlaganda bolalar orasida turli xil madaniy qarashlar shakllanadi, irqchilik, millatchilik kabi masalalar o'z-o'zidan bartaraf bo'la boshlaydi. Bolalarning jamoaga fikrlarini erkin bayon qilish, ya'ni nutqiy kompetensiyalari shakllanadi. Guruh bo'lib ishlash haqida sharq allomalari ajoyib fikrlarni aytganlar. “Inson jamiyat ichida yashashi va boshqalar bilan hamkorlik qilishi orqali ilm va fazilatga erishadi”.³

¹ Bybee R., Science and the 5E Model, 2009.

² Willard, C. (2021). Teacher perceptions of the 5E instructional model in science classrooms. International Journal of Education and Practice, 9(4), 773-786. ERIC.

³ Farobiy, Abu Nasr (1990). Al-Madaniyat al-Kubra (Buyuk madaniyat). Toshkent: Sharq nashriyoti. – 112-bet.



•Baholash uchun ashyolar tayyorlash – kichik testlar, og‘zaki savollar, jadvallar yoki “men bugun darsda o‘rgandim....” kabi so‘rovlar shakllari.

Xulosa qilib aytganda, pedagogning nazariy, metodik va amaliy jihatdan puxta tayyorgarligi 5E modeli asosida taklif etilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayonning sifatini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va o‘qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta‘lim talablariga mos, raqobatbardosh va kompetent shaxsni shakllantirishning muhim shartidir. Bugungi raqobatbardosh zamonamizda raqobatbardosh kadrlarga ehtiyojimiz baland..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jean Piaget. of Intelligence. The Psychology London: Routledge, 1950.
2. Biological Sciences Curriculum Study. The BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness. Colorado Springs, 2006.
3. Rodger W. Bybee. Scientific and Engineering Practices in K–12 Classrooms: Understanding A Framework for K–12 Science Education. Arlington, VA: NSTA Press, 2013.
4. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. Toshkent, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2020.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste‘dod, 2010.
7. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
8. Bybee R., Science and the 5E Model, 2009.
9. Willard, C. (2021). Teacher perceptions of the 5E instructional model in science classrooms. International Journal of Education and Practice, 9(4), 773-786. ERIC